

**YOSHLARIMIZDA EKOLOGIK ONG VA
ETNOMADANIYATNI YUKSALTIRISH**

Norimonova Gulmira Ulug‘bek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti

Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va

huquq ta’limi yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh avlodda ekologik ong va etnomadaniy tafakkurni shajllantirish va ularni yuksaltirishning dolzarb ilmiy-nazariy asoslari haqida so‘z boradi. Global ekologik muammolar kuchayib borayotgan hozirgi zamonda insonning tabiatga ongli va ma’sulyatli yondashuvini shakllantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuning uchun ekologik ongni yoshlар ongiga singdirishda milliy etnomadaniyat omillaridan oqilona foydalanish- barqaror rivojlanishning muhim tarkibiy qismidir. Mazur maqolada ekologik ongning mazmun-mohiyati, shakllanish omillari, shu bilan birga yoshlар tarbiyasida uning o‘rni katta ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, ekalogik tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va milliy-etnik qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash orqaligina ekologik ongni kuchaytirish mumkin bo‘ladi, albatta. Mening fikrimcha, yosh avlodning ekologik madaniyatini shakllantirishda xalqning tarixiy-madaniy merosidan foydalanish va ularni ekologik ta’limning tarkibiy qismiga aylantirish hamda davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlash muhim deb hisoblayman.

Abstract: This article discusses the current scientific and theoretical foundations for the formation and improvement of ecological consciousness and ethnocultural thinking in the younger generation. In our time, when global environmental problems are intensifying, it is important to form a conscious and responsible approach to nature. Therefore, the rational use of national ethnocultural factors in instilling ecological consciousness in the minds of young people is an important component of sustainable development. The present article scientifically substantiates the content and essence of ecological consciousness, the factors of its formation, and at the same time its great role in the education of young people. Also, it is possible to strengthen ecological consciousness only by ensuring the harmony of modern pedagogical technologies and national-ethnic values in the process of ecological education. In my opinion, in the formation of the ecological culture of the younger generation, I consider it important to use the historical and cultural heritage of the people and make them a component of ecological education and support them at the level of state policy.

Аннотация: В статье рассматриваются современные научно-теоретические

основы формирования и развития экологического сознания и этнокультурного мышления среди подрастающего поколения. В современную эпоху обострения глобальных экологических проблем важно сформировать осознанный и ответственный подход человека к природе. Поэтому рациональное использование национальных этнокультурных факторов в формировании экологического сознания молодежи является важной составляющей устойчивого развития. В статье научно обоснованы содержание, факторы формирования и значение экологического сознания в воспитании молодежи. И, конечно же, усилить экологическое сознание можно только обеспечив гармонию современных педагогических технологий и национально-этнических ценностей в процессе экологического образования. На мой взгляд, важно использовать историко-культурное наследие народа в формировании экологической культуры подрастающего поколения, сделать его составляющей экологического образования и поддерживать на уровне государственной политики.

Kalit so‘zlar: Ekologik ong, etnomadaniyat, yoshlar tarbiyasi, ekologik madaniyat, milliy qadriyatlar, ekologik ta’lim, barqaror rivojlanish, ekologik tarbiya, xalq an’analari, madaniy meros.

Keywords: Ecological awareness, ethniculture, youth education, ecological culture, national values, ecological education, sustainable development, ecological upbringing, folk traditions, cultural heritage.

Ключевые слова: Экологическое сознание, этнокультура, воспитание молодежи, экологическая культура, национальные ценности, экологическое образование, устойчивое развитие, экологическое воспитание, народные традиции, культурное наследие.

Kirish: Bugungi globallashuv davrida ekologik muammolar nafaqat alohida bir hudud yokida davlat, balki butun bir insoniyat taqdiriga ta’sir ko‘rsatayotgan muhim muammolardan biriga aylanib ulgurgan. Atmosferaning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishlari, biologik xilma-xillikning kamayib borishi, suv va tuproq resurslarining yemirilib borishi kabi muammolar barqaror taraqqiyotga tahdid solib kelmoqda. Bu kabi murakkab ekologik vaziyatda insoniyatning tabiatga bo‘lgan munosabatini qayta ko‘rib chiqishimiz, atrof-muhitga ongli yondashuv asosida yashash tamoyillarini shakllantirish bugungi kun tartibiga chiqmoqda.

Ekologik ong- bu insonning tabiatga nisbatan ma’sulyati, ongli, ehtiyotkor munosabatini ifodalovchi murakkab psixologik, ijtimoiy va madaniy hodisa bo‘lib, u o‘z ichiga bilim, qadriyat, ekologik xatti-harakat va fuqarolik ma’sulyatini oladi, albatta. Buning uchun yoshlar ongida ekologik qadriyatlarni shakllantirish va ularning ekologik madaniyatini rivojlantirish uchun zamonaviy ta’lim va texnologiyalar bilan birga, milliy-etnik merosdan oqilona foydalanishimiz lozim bo‘ladi. Etnomadaniyat-

xalqning tarixiy, madaniy va ma’naviy merosiga asoslangan turmush tarzidagi tabiatga nisbatan bo‘lgan an’anaviy qarashlar, urf-odatlar va axloqiy me’yorlar muhim manba vazifasini bajaradi. O‘zbek xalqining qadimiy madaniyatida tabiatga nisbatan mehr, hurmat va ehtiyyotkorlik qadimdan chuqr ildiz otgani bejiz emas. Xalq og‘zaki ijodida, urf-odatlarda, bayramlarida, dehqonchilik an’analarida ekologik qadriyatlarida o‘z aksini topadi. Shu sababli, yoshlar ongida ekologik ongni yuksaltirishda etnomadaniy resurslardan foydalanish ekologik tarbiyaning milliy modeli sifatida katta ilmiy va amaliy jihatdan ahamiyat kasb etadi. Mening fikrimcha, ekologik tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va milliy-etnik qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash orqali ekologik ongni kuchaytirish mumkin.

Atrof-muhitning tozaligi va uning rang-barangli-yu xilma-xilligini saqlash, ekologik madaniyatni rivojlantirish va uni boshqarish, asosan, tabiatni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi va uning joylardagi tashkilotlari faoliyatiga bog‘liq bo‘lib qolmay, joylardagi davlat hokimiyati organlarining ham burchi va vzaifasi deb hisoblayman. Ona tabiatimizni asrash va uni muhofaza qilish, tabiatdan oqilonsa foydalanish va jamiyatda ekologik madaniyat va ekolgik ongni rivojlantirish, shu zaminda yashayotgan har bir insonning Ona Vatanimizga va uning tabiatiga bo‘lgan farzandlik burchidir.

Asosiy qism: Insoniyatning atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlari ming yillar davomida shakllangan bo‘lib, har bir jamiyat o‘zining madaniy, diniy, ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlariga mos holatda tabiatga yondashuv uslublarini ishlab chiqqan, albatta. Ayniqsa, xalqning madaniy merosi- etnomadaniyat tarkibida tabiat bilan uyg‘unlikda yashash va uni muqaddaslashtirish bilan birga asrashga doi qadriyatlar jamlangan. Bunda o‘zbek xalqining og‘zaki ijodi, marosim va urf-odatlarida tabiatga nisbatan ekologik jihatdan barqaror munosabatning namunalarini ko‘rshimiz mumkin. Misol uchun, “daraxtni kesma, soyani esla” singari maqollar tabiatni qadrlash, uni avaylash g‘oyasini targ‘ib qiladi. Bugungi kunda yoshlar orasida ekologik madaniyatning sustligi ko‘pincha ular uchun bu mavzularning mavhumligi, noaniq va qiziq bo‘limganligidir. Shu sababli, ekologik tarbiya faqatgina axborot berishga emas, balki hayotiy zaruratni anglatishga, hissiy ta’sirga va amaliy mashg‘ulotlarga tayanishi mumkin bo‘ladi. Etnomadaniyat bu yerda til, obraz va timsollar orqali chuqr ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida ishlaydi, albatta. Bugungi ekologik inqiroz holatlari, global iqlim o‘zgarishlari, resurslarning chegaralanligi, ekologik savodsizlik va befaqlik singari muammolar insoniyat oldida ekologik madaniyatni shakllantirish masalasini kun tartibiga qo‘yilmoqda. Ayniqsa, yoshlar ongida ekologik ong va ma’sulyatni yuksaltirish bugungi kunning eng muhim strategik vazifalaridan biridir. Chunki, aynan yoshlar kelajak jamiyatining faol ishtirokchilari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayoting asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Ularning tabiatga bo‘lgan munosabatlari nafaqat shaxsiy hayot tarzini, balki umumiy ekologik xavfsizligini ta’minlaydi.

Ekologik ong- bu insonning tabiatga nisbatan ongli, axloqiy va ijtimoiy ma'sulyatli munosabatini ifodalovchi ko'p komponentli tizimdir. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Kognitiv komponent-tabiat to‘g‘risidagi ilmiy bilimlar, ekologik muammolar va ularning oqibatlari haqidagi xabardorlik;
2. Affektiv komponent-tabiatga nisbatan hissiy munosabat, ekologik qadriyatlar, ekologik javobgarlik;
3. Praktik komponent-tabiatni asrashga yo‘naltirilgan konkret faoliyat va xatti-harakatlar.

Ekologik ongni yoshlar ongiga singdirishning samarali yo‘llaridan biri bu milliy etnomadaniyat resurslaridan foydalanish hisoblanadi. Etnomadaniyat-xalqning tarixiy-madaniy merosi, urf-odatlari, an’analari, axloqiy qarashlari, tabiatga nisbatan shakllangan qadimiy munosabatlarini o‘z ichiga oladi. O‘zbek xalqining qadimiy turmush tarzida tabiat bilan uyg‘un yashash va uni ardoqlash bilan birga muqaddas deb bilish kuchli ildiz otib ulgurgan. Bular asosan, maqollar, rivoyatlar, dostonlar, bayramlar va marosimlarida bu kabi qadriyatlar aniq namoyon bo‘ladi. Masalan, “Daraxt ek, savob top”, “Ona yerga rahm qil”, “Suvni tejab iste’mol qil” singari iboralar yosh avlodga bevosita tabiatga ehtiyyotkorlik bilan qarash g‘oyasini singdiradi. Yoshlarimiz ongida ekologik ma’sulyatni shakllantirishda quyidagi ilmiy-metodik yondashuvlar muhim hisoblanadi:

1. Milliy etnomadaniy asoslangan ekologik ta’lim: Ta’lim jarayonida xalq ijodi, an’anaviy ur-odatlari, marosimlar orqali ekologik qadriyatlarni singdirish-nafaqat ma’lumot berish, balki ongni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunga misol qilib, “Navro‘z” bayramida poklik, yerga e’tibor g‘oyalari yoshlar tarbiyasida faol foydalanishi mumkin.
2. Ekologik ma’naviyat va axloq asoslarini rivojlantirish: Tabiatni faqatgina resurs sifatida emas, balki mavjudot sifatida ko‘rishga undovchi qadriyatlarni rivojlantirish-yoshlarning axloqiy pozitsiyasini shakllantiradi. Din, adabiyot, san’at kabi sihalarda bu yondashuvlarni asoslash orqali ekologik ong chuqurlashtiriladi.
3. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish: Ekologik tarbiyada interaktiv metodlar- amali mashg‘ulotlar, ekologik loyihamalar, ekologik muammolarni yechish bo‘yicha debatlar-yoshlarning jarayonga faol ishtirokini ta’minlaydi, albatta.
4. Oilaviy va mahalla muhitining roli: Ekologik qadriyatlari, asosan, ijtimoiy tajriba orqali shakllanadi. Oila, va mahalla orqali yoshlarda ekologik madaniyatni kuchaytirish mumkin.
5. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish: Bugungi kunda yoshlar orasida keng tarqalgan raqamli platformalar orqali ekologik ong va etnomadaniyatga doir video, vlog, onlayn kurslar, testlar yaratish orqali

ularning qiziqishlarini oshirish mumkin. Bu bilan ekologik bilimlar zamonaviy texnologiyalar orqali tez va samarali yetkaziladi.

Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, ekologik ong va etnomadaniyat bir-birini to‘ldiruvchi hamda kuchaytiruvchi tizimlar sifatida qarashimiz lozim bo‘ladi. Bularning uyg‘unligi orqali barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik va madaniy merosni asrash kabi yondashuvni hayotga tatbiq qiluvchi, uni davom qiluvchi asosiy ijtimoiy guruh sifatida belgilanishi kerak deb o‘ylayman.

Xulosa: Ushbu maqoladan xulosa shuki, yoshlarimizda ekologik ong va etnomadaniyatni yuksaltirish bugungi jamiyatning rivojlanishida juda muhim. Ular tabiatni asrash, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish va barqaror rivojlanishga hissa qo‘sishda asosiy kuch bo‘ladi. Shu sababli, ekologik ta’lim, etnomadaniyat, axloqiy qadriyatlar va amaliy faoliyat orqali yoshlarning ekologik ongini shakllantirish va ular uchun atrof-muhitni asrashning ahamiyatni yahshi tushuntirish, har bir yoshning jamiyat oldidagi burchi sifatida tabiatimizni saqlashni his qilishi uchun kompleks yondashuvlarni amalha oshirish kerak. Bu kabi jarayonlarni rivojlantirishda davlat, ta’lim muassasalari, oila va jamoatning o‘zaro hamkorligini kuchaytirish, ekologik ongni yosh avlodga to‘g‘ri va samarali tarzda yetkazish imkonini beradi, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zokirov,M.(2010).Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish.Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi.
2. Sultonov,B.(2015).Yoshlar tarbiyasida ekologik ma’sulyat. Toshkent:Fan va texnologiya nashriyoti.
3. Davronov,D., Turg‘unov,A.(2017). Ekologik ta’lim va yoshlar.Toshkent:O‘zbekiston ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish ilmiy-tadqiqot instituti.
4. <https://www.hufocw.org>
5. hppts://journals.proindex.uz